

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Tuychiev	
Chet tilini o'qitishda talabalarning tanqidiy fikrlash va so'zlashish malakalarini rivojlantirish bo'yicha debatlar tashkil etish	462
M.Zohidova	
Madaniyatlararo muloqotni ingliz tili darslarida video vazifalar orqali rivojlantirish.....	466
B.Yunusova	
Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy asosi.....	470
Z.Alimova	
Navoiyning “Saddi iskandariy” asaridagi forscha-tojikcha so'zlarning semantik jihatdan guruhlanishi	475
F.Yuldasheva	
Zamonaviy tilshunoslikda xushmuomalalik tadqiqi	480
J.Djamolov	
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nuqtai nazaridan tilni rivojlantirish masalalari.....	484
F.Xalimova	
Badiiy konseptlar tipologiyasi	490
D.M.Xoshimova	
Tarjimada xarakter psixologiyasini aks ettiruvchi qiyosiy vositalar tarjimalari	494
M.A.Hojiyeva	
Mustaqil ta'lim vositasida bo'lajak filolog mutaxassislarining terminologik kompetentligini rivojlantirish	497
Sh.S.Irgasheva	
Ingliz tilida internet diskursidagi neologizmlar faoliyatining semantik xususiyatlari	502
G.M.Mamadjanova	
Konstantalarni asosiy lingvokulturologik birliklar sifatida o'rganish	507
V.A.Giyosova	
Murojaat birliklarining ijtimoiy-lisoniy tahlili	512
Z.S.Paziljanova	
Madaniyatlararo muloqotda muloqot modellari	517
A.A.Haydarov, Z.T.Yadgarova	
Ritm, qofiya, intonatsiya	520
I.T.Hojaliyev, M.Sh.Xolmatov	
Xotira matnlaridagi polisemantik so'zlarning semantik-strukturasi	524
	FANIMIZ FIDOYILARI
SHARIFAXON ISKANDAROVA	529

NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” ASARIDAGI FORSCHA-TOJIKCHA
SO‘ZLARNING SEMANTIK JIHATDAN GURUHLANISHI

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ГРУППИРОВКА ПЕРСИДСКО-ТАДЖИКСКИХ СЛОВ В «САДДИ
ИСКАНДАРИ» НАВОИ

SEMANTIC GROUPING OF PERSIAN-TAJIK WORDS IN NAVOIY'S “SADDI
ISKANDARIY”

Alimova Zarifa Vaxobovna¹

¹Alimova Zarifa Vaxobovna

– Farg‘ona davlat universiteti, tilshunoslik kafedrası dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Navoiy asarlarining lingvistik tadqiqiga oid fikr-mulohazalar yuritilgan. Shu jumladan, Navoiy “Xamsa”sining so‘nggi dostoni “Saddi Iskandariy” asari xususida, zullisonayn shoir sifatida adib o‘z asarlarini turkiy va forsiy tillarda yozganligi, asarda qo‘llangan forsha-tojikcha so‘zlar, ularning semantik maydon asosida guruhlanishi, lug‘aviy ma‘nolari, forsha-tojikcha sinonim va antonimlar, izofiy birliklarning qo‘llanilishi, izofiy birliklarni qo‘llashda arabiy va forsiy so‘zlarning faolligi haqida so‘z boradi. Shuningdek, Navoiy asarlarida qo‘llanilgan bog‘lovchilar, olmoshlar, takrorlarning qo‘llanilishi yuzasidan ham fikrlar bildirilgan.

Аннотация

Данная статья содержит комментарии к лингвистическому исследованию творчества Навои. В том числе идёт речь о последнем эпосе Навои «Хамса» «Садди Искандарий», о том что как поэт писал свои произведения на тюркском и персидском языках, используемые в произведении персидско-таджикские слова, их группировка с точки зрения семантики, словарь значения, персидско-таджикские синонимы и антонимы, употребление единиц изафета, активность арабских и персидских слов в употреблении единиц изафета. Также были высказаны мнения об использовании союзов, местоимений и повторов, используемых в произведениях Навои.

Abstract

This article contains comments on the linguistic study of Navoi's creativity. Including Navoi's last epic "Khamasa" "Saddi Iskandariy", the fact that the poet as a poet wrote his works in Turkic and Persian languages, Persian-Tajik words used in the work, their grouping according to the semantic field, a dictionary of meanings, Farsi-Tajik synonyms and antonyms, the use of superlatives, the activity of Arabic and Persian words in the use of superlatives. Opinions were also expressed on the use of conjunctions, pronouns and repetitions used in the works of Navoi.

Kalit so‘zlar: ikki tillilik, forsha-tojikcha so‘zlar, lug‘aviy birlik, so‘z semantikasi, sinonim, antonim, bog‘lovchi, ot, sifat, son, olmosh, izofa, izofiy birlik, so‘z etimologiyasi.

Ключевые слова: двуязычие, персидско-таджикские слова, лексическая единица, семантика слова, синоним, антоним, союз, существительное, прилагательное, число, местоимение, изафет, единица изафета, этимология слова.

Key words: bilingualism, Persian-Tajik words, lexical unit, word semantics, synonym, antonym, conjunction, noun, adjective, number, pronoun, izafet, izafet singular, word etymology.

KIRISH

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni “Xamsa”ning yakunlovchi dostoni hisoblanadi. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O. Davlatovlar hamkorligida yaratilgan Navoiyshunoslik kitobida yozilishicha, bu doston buyuk sarkarda – jahongir Iskandarga bag‘ishlangan bo‘lib, “Xamsa”ning yakunlovchi dostonidir. Sharqda u Iskandar Zulqarnayn (“ikki shoxli” yoki “kun chiqish va kun botish hukmdori”) nomi bilan mashhur. Dastlab Iskandar mavzusi Firdavsiyning “Shohnoma” dostonida qalamga olingan. Keyinroq Nizomiy Ganjaviy u haqda maxsus “Iskandarnoma” degan doston yozadi. Xusrav Dehlaviy bu dostonga javob tarzida “Oyinayi Iskandariy” asarini yozgan bo‘lsa, Abdurahmon Jomiy o‘z dostonini “Xiradnomayi Iskandariy” deb ataydi. Alisher Navoiy esa bu mavzuni turkiy tilda qayta ishlab, o‘z asariga “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) deb nom beradi[5, 150].

ADBIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilshunosligida Navoiy asarlarini o'rganish, ularni lingvistik tadqiq etish XX asrning 40-yillaridan boshlangan. Navoiyshunoslik sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan adabiyotshunoslardan A.Hayitmetov, B.Abdullayev, I.Haqqul, S.G'aniyeva, A.Qayumov, Yo.Is'hoqov, H.Jo'rayevlarning xizmatlari katta. Navoiy asarlarini lingvistik jihatdan tadqiq etgan tilshunoslardan B.Bafoyev, A.Nishonov, E.Umarov, S.Ashirboyev, A.Rustamov, M.Qodirov, F.Hayitmetov, N.Umarova, A.Karimov, Z.Isaqova, D.Abduvaliyeva kabi olimlarning ilmiy izlanishlari tahsinga loyiq. Q.Muhiddinov, X.Doniyorov, U.Sanaqulovlar Navoiy asarlarining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishga munosib hissa qo'shganlar.

Tilshunos N.Umarova "Navoiy g'azallari maqtasida sabab va oqibat munosabatining mazmuniy hamda konstruktiv shakllari" deb nomlangan monografiyasida Navoiy g'azallarida qo'llangan so'z turkumlari, xususan, ot, sifat, ravish, olmosh, shu bilan birga bog'lovchilar qo'llanilish o'rni haqida ilmiy qarashlar bildirilgan [7, 27-89].

A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" [8,21], G'Abdurahmonov hamda Sh.Shukurovlarning "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" [2,224] va boshqa bir qator ilmiy adabiyotlarda Navoiy qo'llagan forscha-tojikcha so'zlar izohi berilgan.

U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Aliyevlar tomonidan yaratilgan "O'zbek adabiy tili tarixi" kitobida Alisher Navoiy davrida ikki tillilik yozma adabiyotda ham o'z aksini topganligi, o'rta asrlarda, xususan, XV asrda yashagan ijodkorlarning ko'pchiligi o'z asarlarini ikki tilda yaratganliklari, Navoiy ham zullisonayn shoir sifatida asarlarini turkiy va forsiy tillarda yozganligi haqida batafsil to'xtalib o'tadilar [6, 34-37]. Navoiy eski o'zbek tilini tojik tili darajasidagi adabiy tilga aylantirishni maqsad qilgan edi. Natijada u "Xamsa", "Chor devon", "Majolis-un nafois", "Mezon-ul avzon", "Mahbub-ul qulub", "Muhokamat-ul lug'atayn" kabi asarlari bilan o'zbek adabiy tilining shuhratini jahonga yoydi.

D.Abduvaliyeva "Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi" dissertatsiyasi avtoreferatida Navoiy asarlarida forscha so'zlar ko'p qo'llangani haqida o'z ilmiy qarashlarini bildirgan. Uning ta'kidlashicha, birgina "Tarixi anbiyo va hukamo" asaridagi 3047 so'zning 506 tasi forscha-tojikcha so'zlardir. "Tarixi muluki ajam" asarida qo'llangan 2418 so'zning 601 tasi fotscha-tojikcha so'zlardir [1,10].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, Navoiy zullisonayn shoir va adib sifatida o'zbek mumtoz adabiyotida munosib o'rin tutadi. "Saddi Iskandariy" dostoni ham nafaqat turkiy, balki forsiy, arabiy so'zlarga ham boydir. Dostondagi forsiy so'zlarni quyidagi semantik guruhlariga birlashtirgan holda o'rganish mumkin:

1. Vatan va u bilan bog'liq leksika: *diyor, zamin, dargoh, dargahnishin, xonaqoh.*
2. Joy nomlari bilan bog'liq leksika: *mayxona, oromjoy, oromgoh, butxona, dargoh.*
3. Kasb-kor bilan bog'liq leksika: *zarkash, bo'ryobof.*
4. Samoviy jismlar bilan bog'liq leksika: *osmon, oftob, sitora, axtar, xurshid, charx, moh (mah).*
5. Madaniyat, musiqa va san'at bilan bog'liq leksika: *sozanda, xonanda, ohang, ovoz, hunar, doira.*
6. Ilm-ma'rifat bilan bog'liq leksika: *kitubxona, kog'az, noma, donish.*
7. Diniy tushunchalar bilan bog'liq leksika: *banda, farishta, parvardigor, parvardigori olam, payg'ambar, xudo, xudoyo, xudovand, pari, kafan, gunah(gunoh), gunahkor(gunohkor), gumroh, farishta, bihisht, do'zax, butxona, butparast.*
8. Mavhum tushunchalarni ifodalovchi leksika: *baxt, balo, nafas, rohat, ranj, rashk, sabr-bardosh.*
9. Shoh va saroy bilan bog'liq leksika: *taxt, toj, xazina, shoh, shah, ko'shk.*
10. May va u bilan bog'liq leksika: *may, mayparast, mayolo, mast, boda, bodapolo.*
11. Inson tanasi va u bilan bog'liq leksika: *sar, chashm, chehra, ashk, lab, labolab.*
12. Maishiy kundalik hayotda qo'llanadigan leksika: *chodir, charog', joynamoz.*
13. Qimmatbaho tosh va u bilan bog'liq leksika: *gavhar, javohir, feruza, javhar, nigin, ganj, ganjina.*
14. Gul va u bilan bog'liq leksika: *bog', bo'ston, chaman, gul, gulbarg, gulbog', sunbul, nastaran (nastarin), nigin, nargis, g'uncha, nilufar, barg.*

TILSHUNOSLIK

15. Qush nomlari: *kabutar, bulbul*.

16. Hayvon nomlari:

a) Afsonaviy hayvon nomlari: *ajdaho, dev*.

17. Sarv va nahv bilan bog'liq leksika:

a) Otlar: *afsona, bozor, dom, dona, doston, durdona, chok, zar, farzand*.

b) Ravishlar: *oshkoro, oroosta, behuda, bisyor, dam-badam, damodam, ziyod, nogoh, oson, haroson (qo'rqqancha)*.

c) Sifatlar: *arjumand, ashknok, baland, zarrin, daler, dardnok, dilbar, dono, dur, durust, dushvor, nozik, noyob*.

d) Olmoshlar: *har, hamul*.

e) Sonlar: *nuxust, yak*.

f) Bog'lovchilar: *agar, gar, garchi, agarchi, chu, chun, chunki, goh, gahi, ki, yoxud, vale, hamonoki*.

g) Yuklamalar: *nafaqat, axir*.

Shu o'rinda "Saddi iskandariy" dostonidan olingan ayrim misollar tahlili bilan tanishsak:

Ki, donish savodida har kimki shoh,

Aning xizmatida bo'lub xoki roh (33-bet). "Kimda-kim bilimdonlik olamining shohi bo'lsa ham, Dehlaviy xizmatida xoki roh bo'lishi aniq" (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 36-bet).

Keltirilgan ikkilikda *ki, donish, har, shoh, xoki roh* so'z va so'z birikmalari forscha bo'lib, ulardan *ki* – bog'lovchi, *donish* – donestan (bilmoq) fe'lidan yasalgan ot, *har* – ayiruvchi belgilash olmoshi, *shoh* – ot, *xoki roh* – forsiy izofa (izofa — aniqlovchi va aniqlanmish, qaratqich va qaralmish o'rtasidagi bog'lanish) bo'lib, "yo'lning tuprog'i" degan ma'noga egadir.

Navoiy asarlarida ko'p uchragan *-ki* va *-kim* bog'lovchilari xususidagi fikrlarni o'zbek tili tarixiga oid tadqiqotlarda ham, hozirgi o'zbek adabiy tili tadqiqiga doir ishlarda ham uchratish mumkin. Bu bog'lovchi ergash gapli qo'shma gaplarning bir necha semantik turlarida qo'llanishi qayd etiladi. Lekin eski o'zbek tilida ergash gapli qo'shma gaplarni shakllantiruvchi *-kim* va *-ki* bog'lovchilari ko'proq bir vazifa uchun tanlangan bo'ladi. U ham bo'lsa, sabab ergash gapli qo'shma gaplarni shakllantirish vazifasidir. Bu bog'lovchilarning ushbu vazifasi ancha uzoq tarixga ega bo'lib, ular XI-XII asrlarga oid yodgorliklarda ham qo'llanganligi aytiladi [2, 223].

Tilshunos N.Umarovning talqinicha, kelib chiqishi jihatidan *-kim* formasi turkiy bo'lib, *-ki* formasi o'zbek tiliga fors-tojik tilidan kirgandir. G'.Abdurahmonov va A.Rustamovning ta'kidlashicha, pahlaviy tilidagi bog'lovchi va o'rin ravishi hisoblangan *-ki*, vaqt ravishi *-ku* va nisbiy yuklama *-ki* har uch forma dariyga kelib o'z ma'nolarini saqlagan holda birikib, *-ki* tusini olgan. O'zbek tiliga dariydagi ana shu *-ki* formasi o'zlashgan. Biroq bu *-ki* formasi o'zbek tiliga singib ketgan bo'lib, *-kim* variantiga aylangan va o'zbek tilining ichki qonunlariga muvofiq rivojlangandir [7, 24]. Navoiy tilida *ki(m)* bog'lovchisining ishlatilish doirasi juda kengdir. Shoir asarlarida ham bu bog'lovchi bosh gapga ergash gaplarning deyarli hamma turlarini bog'lab keladi [7, 25].

Jamlovchi olmoshlarni hosil qilishda xizmat qiluvchi *har* XI-XII asrlardan boshlab qo'llana boshlagan. Bu olmosh ham o'zbek tiliga fors-tojik tilining ta'siri natijasida o'tgan bo'lib, ular o'zi mustaqil va tub turkiy so'zlar bilan qo'shilgan holda jamlovchi olmoshlarni hosil qiladi: *har, har bir, har kim, har qaysi* [9, 56]. Shuningdek, *har* so'zi *doim* va *qachon* so'zlariga qo'shilib, payt ma'nosini ifodalovchi *har doim, har qachon* so'zlari hosil bo'lgan. Mazkur olmoshlar o'zbek tilining ko'plab manbalarida, xususan, "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" [8, 21], "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" [2, 224] va boshqa adabiyotlarda *belgilash olmoshlari* deb ham nomlanganini ta'kidlash zarur.

Nizomiycha gar nazmi cholok yo'q,

Chu el muncha – cholok yo'q, bok yo'q (33-bet). "Nazmda Nizomiychalik mahoratli bo'lmasa ham, lekin el orasida bunga teng keladigan boshqa kimsa yo'q" (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 36-bet). Mazkur baytda *gar*-shart bog'lovchisi, *cholok* – ot (mohir, chaqqon), *chu*- bog'lovchi vazifasida qo'llangan. Mazkur baytda *cholok* so'zi takror holda qo'llangani ushbu so'zdan keyin kelgan *bok* so'ziga mos qofiyadosh bo'lishiga ham ijobiy ta'sir etgan.

Takrorlarning qo'llanilishi boshqa baytlarda ham kuzatiladi:

Jahone ko'rundi ko'zumga nihon,

Nihon, balki har bayti ichra jahon (40-bet). "...hech ma'lum bo'lmagan dunyo ko'zimga ko'rindiki, uning ("Xamsa"ning har) bayti ichiga bir jahon yashiringan ekan" (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 43-bet).

So'z avjida gar ul mahi xovariy,

Bu gar yo'q mahi xovariy, Mushtariy (33-bet). Avvalo, ushbu baytning nasriy tabdiliga ham e'tibor qaratsak. "Agar Nizomiy yozuvlari Sharqning quyoshiga o'xshasa, Dehlaviy quyosh bo'lmaganda ham Mushtariy yulduziga loyiq shoirdir" (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 36-bet). Bizningcha, tabdilda biroz xatolikka yo'l qo'yilgan. Mazkur baytdagi "*mahi xovariy*" "*Sharqning quyoshi*" emas, balki "*Sharqning oyi*" tarzida tabdil qilinishi lozim edi [4,56].

Yuqorida keltirilgan baytda Nizomiy va Dehlaviy so'z mulkining yirik vakillari ekanliklari haqida so'z boradi. Mazkur baytda shoir takrorlardan mohirona foydalangan ma'lum. Mazkur baytda *gar* bog'lovchisi hamda *mahi xovariy (sharqning oyi)* izofiy birikmasi takror holda qo'llangan [10, 81].

"Saddi Iskandariy" dostoni forsiy izofalarga ham boy asardir. Ma'lumki, "izofa" arabcha so'z bo'lib, "qo'shish, orttirish" degan ma'nolarni ifodalaydi. Izofa aniqlanmish va aniqlanmish, qaratqich va qaralmish o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Bunda aniqlovchi va aniqlanmish, qaratqich va qaralmish o'rtasida urg'usiz *-i* yoki *-yi* tovushi orttiriladi. Izofa ishtirok etgan baytlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Yana dashtining sathi andoq vase'

Ki, yetmay qirog'ig'a charxi sare' (41-bet). "*Endi undagi dashtu sahrolarga kelganda, sathi shunchalik keng ediki, uning chegarasiga tezyurar osmon ham yetolmas edi*" (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 44-bet). Baytda keltirilgan *charxi sare'* izofiy birikma bo'lib, aniqlovchi *sare'* (tezyurar), aniqlanmish *charx* (osmon) so'zlaridir.

Nazarg'a kelib ganji beintiho,

Vale har biri uzra yuz ajdaho (41-bet). "*Bu yerlarda ganj-xazinalar nihoyasiz ekanini ko'rgani bilan har bir xazina ustida yuzlab ajdaho borligi ham aniq*" (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 44-bet). Mazkur baytda keltirilgan *ganji beintiho* so'zlari izofa orqali birikkan bo'lib, aniqlovchi *beintiho* (hihoyasiz), aniqlanmish *ganj* (xazina) so'zlaridir.

Bosilg'ochki yanchilsa mo'ri zaif,

Ne ish qilg'ali bo'lg'ay, oyo, harif (43-bet). "*Bosilib-yanchilgan bechora chumolining qo'lidan nina ish kelishi mumkin?*" (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 45-bet). Baytda keltirilgan *mo'ri zaif* so'zlari izofa orqali birikkan bo'lib, "*zaif (bechora) chumoli*" ma'nosini anglatayotir.

Dostonda ikki so'zning emas, balki undan ortiq so'zlarning izofa orqali birikish hollari ham ko'p uchraydi. Jumladan:

Ki: «Yey bulbuli zori alhonsaro,

Vale so'z riyozida dostonaro (42-bet). "*Ey zorlanib sayrovchi bulbul! Ba ey so'z gulzorida dostonlar yaratuvchi shoir!*" (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 44-bet). Baytdan ko'rinadiki, **bulbuli zori alhonsaro** izofiy birikma bo'lib, unda *bulbul* aniqlanmish, *zori alhonsaro* aniqlovchi vazifasida kelayotir.

Dostonda izofa ishtirok etgan birikmalar takror qo'llangan holatlarga ham duch kelish mumkin:

Davotimki, ochti do'koni guhar,

Do'koni guhar yo'qki, koni guhar (44-bet). "*Davotim gavhar do'konini ochdi, gavhar do'koni emas, gavhar konini ochdi*" (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 46-bet).

Dostonda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, ya'ni sinonim, antonim, omonim va paronimlardan ham unumli foydalanilgan muallifning so'z qo'llash mahoratidan dalolat beradi. Quyida antonimlar qo'llanilishiga misollar keltiriladi:

Kishikim boqib oshkoru nihon,

Ko'rub bo'yla mehnat jahon dar jahon (41-bet). "*Har kim bu dashtlarga boqar ekan, bundagi mehnat-mashaqqatlar jahonga sig'masligini oshkoru nihon tushunadi*" (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 44-bet).

Dostonda ayrim antonimlar ma'lum bir so'zga bo'lishsizlik ma'nosini ifodalovchi *no-* old qo'shimchasi qo'shilishi orqali ifodalanganiga guvoh bo'lish mumkin:

Shukuh oncha yuzlandi jonim sari,

TILSHUNOSLIK

Tavon ham tani notavonim sari (43-bet). *“Ko’nglim ko’tarilib, jonimga orom yetdi, notavon tanamga quvvat ham kirdi”* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 46-bet).

XULOSA

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, “Saddi Iskandariy” asarida turkiy, arabiy soʻzlar bilan bir qatorda forscha-tojikcha soʻzlar ham keng qoʻllanilgan boʻlib, ularni semantik maydon asosida guruhlab oʻrganish mumkin. Xususan, forscha-tojikcha soʻzlar ishtirok etgan izofiy birliklarni arabiy+arabiy, arabiy+forsiy, forsiy+arabiy, forsiy+forsiy, forsiy+turkiy koʻrinishida tahlil qilish joiz, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Abduvaliyeva D. Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi. F.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent, 2017. C.-48.
2. Abdurahmonov Gʻ., Shukurov Sh. Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi.-Toshkent: Oʻqituvchi, 1973. -B.110.
3. Navoiy A. Tanlangan asarlar. Majolis-un nafois. Muhokamat-ul lugʻatayn. III tom. –Toshkent: Oʻzbekiston davlat nashriyoti, 1948.
4. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. 3 jild.-Toshkent: Universitet, 2009.
5. Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik (1-kitob), -Toshkent: “Tamaddun”, 2018. S.150.
6. Tursunov U, Oʻrinboyev B., Aliyev A. Oʻzbek adabiy tili tarixi.-Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. –B.264.
7. Umarova N. Navoiy gʻazallari maqtasida sabab va oqibat munosabatining mazmuniy hamda konstruktiv shakllari.-Toshkent: Akadernashr, 2016. -B. 24-25.
8. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. –Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.–B.21.
9. AZ Vaxobovna. About Some Persian-Tajik Lexis and Persian Izafetic Constructions in Navoyi’s Poem “Saddi Iskandari”. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3 (11), 2022, P.55-61.
10. AZarifa “SADDI ISKANDARIY” ASARIDA FORSIY IZOFALI BIRIKMALARNING QOʻLLANILISHI. OLIY VA OʻRTA MAXSUS TAʼLIM VAZIRLIGI FARGʻONA DAVLAT UNIVERSITETI, 2022, B.81.